



UDK:17.316.7

Jamshid SHONAZAROV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.n
E-mail: jshonazarov1981@gmail.com

Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., PhD D.Axatova taqrizi asosida

SPIRITUALITY OF MANAGEMENT AND LEADERSHIP ETHICS

Annotation

In this article, along with the manifestation of the main characteristics inherent in state and public administration, the dialectical harmony between leadership ethics and the spirituality of management is analyzed. The author considers management not only as an organizational and economic system but also as a complex social process closely connected with human qualities, moral values, and spiritual responsibility. The leader's inner culture, as well as such qualities as honesty, justice, humanism, and patriotism, are evaluated as key factors determining the effectiveness of governance. As a result, the synthesis of management spirituality and leadership ethics is emphasized as the foundation of effective leadership and as a means of strengthening the social responsibility of public servants.

Key words: State, Society, power, management, leadership spirituality, morality, leadership management, leadership ethics, managerial spirituality, leader, dialectic, dialectical harmony, leader activity.

ДУХОВНОСТЬ УПРАВЛЕНИЯ И ЭТИКА РУКОВОДИТЕЛЯ

Аннотация

В данной статье наряду с проявлением основных особенностей, присущих государственному и общественному управлению, анализируется диалектическое единство этики руководителя и духовности управления. Автор рассматривает управление не только как организационно-экономическую систему, но и как сложный социальный процесс, тесно связанный с человеческими качествами, нравственными ценностями и духовной ответственностью. Внутренняя культура руководителя, а также такие качества, как честность, справедливость, гуманизм и патриотизм, оцениваются как основные факторы, определяющие эффективность управления. В результате подчеркивается, что гармоничное сочетание духовности управления и этики руководителя служит основой эффективного лидерства и способствует укреплению социальной ответственности государственных служащих.

Ключевые слова: Государство, общество, власть, управление, духовность руководителя, мораль руководителя, менеджмент руководителя, мораль руководителя, духовность руководителя, лидер, диалектика, диалектическая гармония, деятельность руководителя.

BOSHQARUV MA'NAVIYATI VA RAHBAR AXLOQI

Annotatsiya

Mazkur maqolada davlat va jamiyat boshqaruviga xos asosiy xususiyatlarning namoyon bo'lishi bilan bir qatorda, rahbar axloqi va boshqaruv ma'naviyatining dialektik uyg'unligi tahlil etiladi. Muallif boshqaruvni nafaqat tashkiliy-iqtisodiy tizim, balki insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar va ma'naviy mas'uliyat bilan uzviy bog'liq ijtimoiy jarayon sifatida ko'radi. Rahbar shaxsining ichki madaniyati, halollik, adolat, insonparvarlik va vatanparvarlik kabi fazilatlar boshqaruv samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida baholanadi. Natijada, boshqaruv ma'naviyati va rahbar axloqining uyg'unlashuvi samarali rahbarlikning poydevorini yaratishi va davlat xizmatchilarining ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Davlat, jamiyat, hokimiyat, boshqaruv, rahbar ma'naviyati, axdoq, rahbar boshqaruvi, rahbar axloqi, boshqaruv ma'naviyati, rahbar, dialektika, dialektik uyg'unlik, rahbar faoliyati.

Kirish. Bugungi globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida rahbarlik faoliyati yanada murakkablashib, uni samarali tashkil etish uchun nafaqat boshqaruv ko'nikmalari, balki yuksak ma'naviyat, axloqiy mas'uliyat va ijodkorlik zarur bo'lmoqda. Rahbarning ma'naviy yetukligi, nutq madaniyati, ijtimoiy mas'uliyati va insoniy fazilatlarini jamoadagi muhitni belgilovchi muhim omillardandir.

Zamonaviy rahbar faqat buyruq beruvchi emas, balki jamoani ruhlantiruvchi, yangilik yaratuvchi va ma'naviy yetakchi sifatida faoliyat yuritishi lozim. Chunki jamoada ish unumdorligini ta'minlash jarayonida muammolar doimo yuzaga keladi va ularni bartaraf etmasdan rivojlanish mumkin emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijodiy fikrlash, yangicha yondashuv va tashabbuskorlik rahbarning eng muhim fazilatlaridan hisoblanadi.

Rahbarning ma'naviy salohiyati, notiqlik mahorati, iroda, halollik, g'amxo'rlik va mas'uliyat kabi sifatlar uning jamoaga ta'sir kuchini belgilaydi. Aksincha, nutqdagi nuqsonlar, qat'iysizlik va xulqdagi kamchiliklar rahbar obro'sini pasaytiradi. Shuning uchun ham boshqaruv faoliyati murakkab jarayon bo'lib, rahbar undan muvaffaqiyatli chiqish uchun nafaqat bilim, balki ma'naviy barkamollikka ham ega bo'lishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Boshqaruv ma'naviyati va rahbar axloqiga oid falsafiy qarashlarning shakllanishida Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmuluk, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy kabi allomalarning merosi muhim o'rin tutadi. Ularning asarlarida davlat boshqaruvi, adolat, rahbarlik

madaniyati va ma'naviy yetakchilik masalalari chuqur falsafiy asosda talqin etilgan.

Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" va "Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqidagi risola" asarlarida jamiyatni adolat, ilm va ma'rifat tamoyillariga asoslangan tarzda boshqarish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, davlatning asosiy vazifasi insonlarni baxt-saodatga eltish bo'lib, bu faqat ilm va yaxshi axloq orqali amalga oshadi [3]. Shu jihatdan, Forobiy rahbar shaxsining nafaqat siyosiy, balki ma'naviy jihatdan ham yetuk bo'lishini talab etadi.

Mutafakkir rahbarni "faylasuf-shoh" darajasiga ko'taradi. YA'ni, boshqaruvni amalga oshiruvchi shaxs — adolatli, dono, ilmi, halol va g'amxo'r inson bo'lishi kerak. Forobiy rahbarlikni tabiiy iste'dod va tarbiya uyg'unligi orqali shakllanuvchi fazilat sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, insondagi rahbarlik qobiliyati bolalikdan shakllanib, ta'lim va tarbiya orqali takomillashadi. Ammo bu qobiliyat inson tabiiy mohiyatiga chuqur singgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan o'zgarishsiz saqlanadi [4].

Forobiy rahbar shaxsiga xos fazilatlarni ikki guruhga ajratadi: tabiiy va orttirilgan sifatlar. Tabiiy fazilatlarga sog'lom tana, o'tkir zehni, kuchli xotira, farosatlilik, nutq madaniyati, sabr-toqat, bilimga chanqoqlik, odillik, halollik, mulohazakorlik va adolatparvarlik kiradi. Rahbar, shuningdek, mol-dunyoga ruju qo'ymasligi, haqiqatni sevishi, yolg'on va zolimlikka qarshi turishi, jasorat va qat'iyatga ega bo'lishi zarur [4].

Forobiyning bu qarashlari keyingi asr mutafakkirlarining asarlarida ham o'z aksini topgan. Masalan, Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida rahbarning axloqiy barkamolligini davlat barqarorligining asosi sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, "podsho adolatli bo'lsa, xalq osoyishta yashaydi, podsho zolim bo'lsa, mamlakat tanazzulga yuz tutadi" [5]. Shuningdek, Nizomulmuluk "Siyosatnoma" asarida davlatni boshqarishda rahbarning ma'naviy yetukligi va halolligini muhim omil sifatida ko'rsatadi [6].

Zamonaviy falsafiy adabiyotlarda ham rahbarning ma'naviy salohiyati boshqaruv samaradorligining poydevori sifatida talqin etiladi. Xususan, T. Alimardonov o'zining "Amir Temur davlat boshqaruvining falsafiy-axloqiy asoslari" asarida rahbar shaxsining mas'uliyati, axloqi va adolat tamoyillari asosida jamiyatni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi [7]. Sh. Mirziyoyev va I. Karimov asarlarida esa rahbarning xalq oldidagi mas'uliyati, halollik, vatanparvarlik, mas'uliyat va insonparvarlik kabi fazilatlar boshqaruv madaniyatining ajralmas qismi sifatida qoraladi [1,2].

Demak, Forobiydan boshlab zamonaviy davr rahbarlik falsafasigacha bo'lgan davrda asosiy g'oya o'zgarmagan — rahbar shaxsining ma'naviy-axloqiy yetukligi davlat boshqaruvi samaradorligining asosiy omilidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda rahbar shaxsining ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish jarayoni, boshqaruv uslublari va zamonaviy rahbarlik faoliyatining falsafiy asoslari tizimli yondashuv asosida o'rganiladi. Tadqiqotning metodologik asosini falsafiy, ijtimoiy-psixologik, axloqiy va boshqaruv nazariyalari tashkil etadi.

Boshqaruvda rahbarlik faoliyatining avtoritar, demokratik va liberal uslublari mavjud bo'lib, ularning har biri turli davr va sharoitlarda o'ziga xos tarzda qo'llanilib kelgan. Ular orasida bugungi kunda demokratik boshqaruv uslubi eng ko'p tarqalgan bo'lib, dunyo xalqlari tajribasida ijtimoiy hamkorlik, shaffoflik va mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Bu yondashuv rahbarning nafaqat boshqaruvchilik, balki insoniy fazilatlar asosida jamoani boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishini taqozo etadi.

Tadqiqotda rahbar faoliyatining zamonaviy sharoitda o'zgarib borayotgan ijtimoiy mohiyati tahlil qilinadi. Global

integratsiya, iqtisodiy aloqalar, axborot texnologiyalarining rivoji rahbar oldiga yangi talablarni qo'yimoqda. Bugungi jamiyatda rahbarlik faqat buyruq va nazorat mexanizmi emas, balki insonlar bilan hamkorlikda ijtimoiy maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish san'ati sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqotning nazariy asosida ma'naviy-axloqiy qiyofa tushunchasi alohida o'rin tutadi. Rahbarning ma'naviy qiyofasi uning ichki dunyosi, ruhiy barqarorligi, irodasi, halolligi, g'amxo'rliqi, fidoyiligi va mas'uliyat darajasi bilan belgilanadi. Tadqiqotda rahbarning ma'naviy qiyofasi uch asosiy qatlamda o'rganiladi:

Ma'naviy qatlam — shaxs axloqi va ruhiy dunyosining poydevori. Bu qatlamda insonning e'tiqodi, vijdoni va qadriyatlarini rahbarlik faoliyatining yo'nalishini belgilaydi. Ma'naviy jihatdan nochor rahbar hech qachon axloqiy jihatdan yuksak bo'la olmaydi.

Axloqiy qatlam — rahbarning odob, adolat, rostgo'ylik, sabr-toqat, vatanparvarlik, halollik va mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlarini o'z ichiga oladi.

Ruhiy qatlam — rahbar shaxsining irodasi, jasorati, fidoyiligi, vijdoni, tashabbuskorligi, optimizmi kabi psixologik xususiyatlarni qamrab oladi.

Tadqiqot davomida rahbarlik faoliyatida vijdon, iroda, vatanparvarlik va mas'uliyat kabi ma'naviy omillar boshqaruv samaradorligini ta'minlovchi asosiy mezonlar sifatida tahlil qilinadi. Rahbar o'z faoliyatini nazorat qila olish, xatolarini tan olish va tuzatish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Chunki boshqaruv faoliyatini nazorat qiluvchi rahbar, avvalo, o'zini nazorat qila olishi lozim. Aks holda jamoada ma'naviy-axloqiy muhit buziladi, ishonch susayadi.

Tadqiqot shuningdek, ijtimoiy va ma'naviy mas'uliyatni kuchaytirish yo'lida rahbarlikda zamonaviy bilimlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Bugungi rahbar iqtisod, siyosat, axborot texnologiyalari, huquq va ma'naviyat fanlaridan xabardor bo'lishi shart. Shu sababli, rahbarlik faoliyatida zamonaviy bilimdonlik va innovatsion yondashuv muhim o'rin tutadi.

Bu borada ma'rifatparvar olim Mahmudxo'ja Behbudiyning fikri bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan:

"Hozirgi zamon ishlari, xoh tijorat, xoh hukumat, xoh sanoat sohalarida bo'lsin, ilm va zamonaviyliksiz rivojlanmaydi. O'zingizni va farzandlaringizni zamonaviylikka o'qitishga harakat qiling" [8].

Demak, tadqiqotning metodologik yondashuvi shundan iboratki, rahbar ma'naviyatining shakllanishi — bu ijtimoiy, axloqiy, psixologik va intellektual omillarning uyg'un tizimi bo'lib, uni chuqur falsafiy asosda o'rganish boshqaruv madaniyatini yuksaltirishning muhim omilidir.

Tahlil va natijalar Tadqiqot jarayonida boshqaruv tizimining amaliy jihatlari, rahbarlik faoliyatining o'ziga xos tomonlari hamda tashkilot faoliyatida uchraydigan muammolarning sabablari tahlil qilindi. Boshqaruv faoliyatini qarorlar, buyruqlar, ko'rsatmalar va farmoyishlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bilan birga, ayrim hollarda rahbarlarning byurokratik yondashuvi bu hujjatlarni ijodiy tafakkur va mas'uliyatli qaror qabul qilish o'rniga, faqat rasmiy ko'rsatmalarga tayanadigan vositaga aylantirib qo'yadi.

Hayotda esa har bir muammo o'ziga xos sabab va oqibatlarga ega bo'lib, mavjud meyoriy hujjatlar barcha vaziyatlarni qamrab ololmaydi. Shu sababli, rahbardan dadillik, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, mustaqil fikrlash va tashabbuskorlik talab etiladi. Bu fazilatlar rahbarning ma'naviy-axloqiy qiyofasining amaliy ifodasi bo'lib, tashkilotning samarali ishlashini ta'minlovchi muhim omildir.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, har qanday tashkilot faoliyatining barqarorligi uch asosiy omil bilan belgilanadi:

Davlat qonunlariga asoslangan faoliyat yuritish;

Mehnatni samarali tashkil etish va rag'batlantirish tizimi;

Lavozimga munosib rahbar faoliyati.

Aynan uchinchi omil – rahbarning shaxsiy fazilatlarini, mas'uliyati, tashkilotchilik salohiyati va insoniy qadriyatlarini birinchi ikki omilning real natijadorligini belgilaydi. Shu bois tashkilotning muvaffaqiyati ko'p jihatdan rahbarning boshqaruv madaniyati va ma'naviy salohiyatiga bog'liqdir. Rahbar jamoada ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit yaratishi, muammolarni to'g'ri tahlil etib, ularni adolatli hal eta olishi kerak.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning boshqaruv tizimida rahbar kadrlarni tanlash jarayonida tarixiy an'analar va zamonaviy ilmiy yondashuvlar uyg'unlashib bormoqda. Kadrlar siyosatida qadimiy tajribalar bilan bir qatorda, hozirgi zamon boshqaruv psixologiyasi, ijtimoiy falsafa va menejment nazariyalariga asoslangan uslublar qo'llanilmoqda. Biroq, sobiq sovet tuzumi davrida shakllangan ayrim byurokratik va formalistik an'analar hanuzgacha saqlanib qolgan.

Bu holat rahbar kadrlarni tanlashda insonning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, halolligi, ijodiy tafakkuri va mas'uliyat hissi yetarlicha e'tiborga olinmayotganini ko'rsatadi. Natijada, ayrim tashkilotlarda boshqaruvda formal yondashuv, tashabbus yetishmasligi, shaxsiy manfaat ustuvorligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, tashkilotlar faoliyatida qonuniylik, mehnat samaradorligi va rahbar shaxsining ma'naviy fazilatlarini o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash — barqaror rivojlanishning asosiy shartidir. Rahbar faqat boshqaruvchi emas, balki jamiyatni rivojlantiruvchi, jamoani ruhlantiruvchi, adolat va ma'naviyatni targ'ib etuvchi yetakchi shaxs bo'lishi zarur.

Mamlakatimizda kadrlar siyosatida amalga oshirilayotgan islohotlar, “Yangi O'zbekiston” konsepsiyasi va davlat boshqaruvida inson omili va ma'naviyatni yuksaltirish siyosati ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shunday qilib, tahlillar shuni ko'rsatdiki, rahbar shaxsining ma'naviy-axloqiy barkamolligi, tashabbuskorligi va ijodkorligi – zamonaviy boshqaruv tizimining barqarorligini ta'minlovchi hal qiluvchi omildir.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqotdan kelib chiqib, boshqaruv ma'naviyati va rahbar ma'naviy qiyofasi o'rtasidagi dialektik aloqadorlikning mohiyati quyidagicha umumlashtiriladi:

Birinchiidan, davlat va jamiyat boshqaruvinin demokratlashtirish sharoitida rahbar faoliyati ma'naviy va axloqiy bilimlar asosida shakllanishi zarur. Boshqaruv ma'naviyati va rahbar ma'naviy qiyofasi uyg'un tizim sifatida jamoa farovonligiga xizmat qilishi kerak.

Ikkinchiidan, ularning o'zaro ziddligi to'g'risidagi qarashlar asossizdir. Bu tushunchalar bir-birini to'ldiradi va jamiyatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlaydi.

Uchinchiidan, boshqaruv tizimida rahbarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini – halollik, adolat, mas'uliyat, fidoyilik va vatanparvarlik – tashkilotning muvaffaqiyati va ijtimoiy ishonchning asosiy omilidir.

To'rtinchiidan, rahbarlikda zo'ravonlikka asoslanmagan, insonparvar yondashuv ustuvor bo'lishi lozim. Axloqiy qadriyatlar boshqaruv madaniyatining ajralmas qismi sifatida qaralishi zarur.

Takliflar. Rahbar kadrlarni tanlashda ma'naviy-axloqiy fazilatlar asosiy mezonlardan biri etib belgilansin. Rahbarlar malaka oshirish dasturlariga “boshqaruv etikasi” va “ma'naviy yetakchilik” modullari kiritilsin. Tashkilotlarda sog'lom ma'naviy muhitni mustahkamllovchi ichki axloqiy meyorlar ishlab chiqilsin.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 456 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
3. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993. – 183 b.
4. Forobiy A.N. Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola. – Toshkent: Ma'naviyat, 1993. – 96 b.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Fan, 1983. – 480 b.
6. Nizomulmuluk. Siyosatnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – 212 b.
7. Alimardonov T. Amir Temur davlat boshqaruvinin falsafiy-axloqiy asoslari. – Toshkent, 2007. – 84 b.
8. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – 320 b.
9. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: Fan, 2004. – 212 b.
10. Alimov A. Rahbar etikasi va boshqaruv madaniyati. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 156 b.